



# ISSUE 1

AKADEMIC JOURNAL  
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

FEBRUARY 2024

**MODULLI O‘QITISHNING MOHIYATI DAVR TALABIGA XOSLIGI**

*Xo‘jaqulov Davronbek Raymnazarovich*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada modulli o‘itish texnologiyalarining mohiyati va texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim tizimini olib borish, yo‘llari va turlari haqida olib borilgan.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность модульных технологий обучения, способы и виды ведения образовательной системы с использованием технологий.

**Abstract:** *In this article, the essence of modular teaching technologies and ways and types of conducting an educational system using technologies are discussed.*

**Kalit so‘zlar:** *Modulli o‘qitish, didaktik materiallar, ilm-fan, individual, ma’lumotlar bazasi*

**Ключевые слова:** *модульное обучение, дидактические материалы, наука, личность, база данных*

**Key words:** *Modular teaching, didactic materials, science, individual, database*

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan samarali ishlarni tashkil etishda davr talabiga mos har qaysi odam tug‘ilgandan boshlab alohida individual shaxs hisoblanadi, ya’ni har kimning o‘ziga xos aqliy kurtaklari, ta’lim olishga qobiliyati bo‘ladi. Bundan kelib chiqqam holda, zamonaviy o‘qitish tizimining vazifasi insonning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim. Shu jumladan olib qaraganda “Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishni jadallashtirish” lozim. Oxirgi har 10-15 yil ichida ilmiy faoliyatning asosiy ko‘rsatgichlari ikki marotaba oshib bormoqda. Ilm-fan rivojining jadallahushi va ilmiy texnikaviy informatsiyaning jadal o‘sishiga va tez-tez yangilanishiga olib keladi. Modullashtirish va o‘quv jarayonini texnologiyalash yuzasidan keyingi yillarda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Lekin bu borada“ o‘quv tarbiya jarayonini modullashtirish va algoritmlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan emas. Bu holatning genesis va takomillashuvini atroflicha tadqiq etish orqali va tajriba sinovishlari hamda pedagogik eksperimentning qat’iy xulosalariga tayanib ta’lim jarayoniga modulli yondashuvni kuchaytirish” mumkin.

Ta’lim tarbiya jarayonlariga modullashtirish va algoritmlash madaniyati to‘la kirib borganida pedagogik texnologiyalarning yaratilishi va ularning amalda qo‘llanilishi borasida sezilarli yutuqlarga erishish imkoniyati kuchayadi. “Modulli o‘qitish” termini xalqaro tushuncha – modul bilan bog‘liq bo‘lib (“modul”, lat. “modulus” so‘zidan olingan bo‘lib - me‘yor, o‘lchov degan ma‘noni anglatadi) uning ma’nosini faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildirad. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloke sifatida tushuniladi.

Modullilikning 7 ta prinsipi mavjud

1. prinsip: ta'limning konstruktivligi
2. prinsip: maqsadlarning aniqligi
3. prinsip: ta'limning qulayligi
4. prinsip: ta'sirlarning tizimliligi
5. prinsip: ta'limning ixchamligi
6. prinsip: ta'limni individuallashtirish
7. prinsip: metodik maslahatlarning turli xilligi

### Modulli o'qitish va ularning rivojlanish bosqichlari

<b>An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
<p>Bir tomonga yo'naltirilgan axborot.          Bir tomonlama muloqot          (darslik→o'qituvchi→o'quvchi)          Axborot olish          Xotirada saqlash          Ma'nosini tushunmagan holda          Mexanik tarzda yodlash.</p>	<p>Fikrlash va amaliy faoliyat orqali          Tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish.          Ikki tomonlama muloqot          Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish          Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish          Mazmunni tushunish va hayotga bog'lash.</p>

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi
- tinglovchilar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modular natijasi va tahliliga og'liq bo'lib bu omillar qanchalik yaxshi rivojlansa modulli o'qitish tizimi ham yuksak natijalar beradi.

O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra modulli metodika asosida o'qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

- 1. Faoliatlilik tamoyili** - modular fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi
- 2. Dinamiklik** - bilimning xarakatchanligi va tezkorligiga erishish
- 3. Metodik maslahatning har tomonlamalligi** - ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'minlash
- 4. Modullilik tamoyili** - modulli dasturlarning o'zgaruvchanligi va moslanuvchanligini ta'minlanadi.
- 5. Xatoliklarga tayanish tamoyili** - bu tamoyil o'qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni o'lchash uchun vaziyatlalar yaratilishiga qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'ladi.
- 6. Tizimli kvantlash usuli** - modul materialini tizimlashni talab qiladi

**7. Motivaciya tamoyili** - talabaning o‘quv bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi

**8. Tenglik tamoyili** - pedagog va talabaning o‘zaro munosabatlaridagi tenglikni belgilaydi

**9. Muammolilik tamoyili** - muammoli vaziyatlar yaratish va mashg‘ulotlarni amaliy yo‘naltirilganligi orqali ta’minlanadi

**10. O‘quv vaqtini tejash tamoyili** - bu tamoyil o‘quvchilarda individual va mustaqil ishslash uchun o‘quv vaqtining zahirasini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

**11. Uzviylik tamoyili** - o‘quv maqsadlariga erishish imkoniyatini ta’minalash uchun o‘quv rejasi va dasturini ishlab chiqishda tizimli yondashishni anglatadi.

**12. Moslashuvchanlik** - ta’lim mazmunini va unga erishish yo‘llarini ta’lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashadir

**13. Kognitiv vizuallik** - psixologik pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi, ularga ko‘ra o‘qitishdagi ko‘rgazmalar nafaqat surat vazifasini bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdarligini oshiradi.

Modulli o‘qitish o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi., chunki odam bosh miyasining o‘zlashtirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. Fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi asosidagi modulli o‘qitish texnologiyasiga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning (fanlar orasida va fanning ichida) uzlusizligini ta’minalash;
- o‘qitishni individuallashtirish
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;

Modul o‘z ichiga 2-3 ma’ruza va shu ma’ruzalar bilan bog‘liq amaliy darslar va laboratoriya ishlarini qamrab olishi mumkin. Har qaysi modul bo‘yicha quyidagi materiallar tayyorlanadi:

- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish uchun testlar;
- individual ishlar uchun topshiriqlarmustaqlar ishlar uchun topshiriqlar;
- o‘quv-uslubiy tarqatma materiallar;
- o‘quv-ilmiy adabiyotlar ro‘yxati;
- ishchi o‘quv dastur.

Shunday qilib, modulli o‘qitishning mohiyati shundan iboratki, ta’lim oluvchi (talaba) o‘ziga taqdim etilgan individual o‘quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o‘quv dasturida xarakatlarning rejasi, axborotlar bloki, o‘qitish natijalariga erishish bo‘yicha metodik tavsyanomalar bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha xarakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Modulli o‘qitish o‘quv jarayonini tashkil etish shakli bo‘lib, unda o‘qitish o‘quv materialining mantiqan tugallangan birlklari modullarni bosqichlar va qadamlar bo‘yicha o‘zlashtirishni anglatadi. Bu sohadagi izlanishlarga ko‘ra, to‘qimasi modulli tashkil topgan inson miyasi, axborot kvant ko‘rinishida eng yaxshi jihatdan ma’lumotlarni qabul qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Olimov, S. S., & Khomidov, K. K. (2020). Preparing Future Teachers to Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth. The American Journal of Social Science and Education Innovations,
2. Ochilov M. Yangi pedagogic texnologiyalar, - Qarshi: Nasaf, 2000
3. David G. Myers Psychology, © 2010 by Worth Publishers
4. . D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova - Interfaolmetodlar; mohiyati va qo'llanilishi (metodik qo'llanma)-Toshkent-2013 yil.
5. <https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/axloqiy-ruhiy-tayyorgarlikning-zamonaviy-usul-va-vositalari>
6. <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/140/121>



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)**

**international scientific journal**

**1-son**

Nashr qilingan sana: 25.02.2024.

Shrift: "Times New Roman".

**"AJER INTER" MCHJ**

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog'iston ko'chasi, 116/6.

[www.ajeruz.com](http://www.ajeruz.com), [info@ajeruz.com](mailto:info@ajeruz.com), +998950457172